Azot nomi grekcha «azos» so‘zidan olingan bo‘lib, uning ma‘nosi hayotiy emas demakdir. Metallar berk idishda qizdirilganda havoning bir qismi metall bilan birik-masdan ortib qolishini 1756-yilda M.V.Lomonosov, 1772-yilda ARezerford tajriba asosida isbotladilar. 1774-1775-yillarda Lavuazye Lomonosovning azot ustida qilgan tajribalarini simob elementlari bilan takrorlab, yonishdan ortib qolgan gaz havoning beshdan to‘rt qismini tashkil etishini aniqladi va bu ortib qolgan gazni azot deb atadi.
30. Quyidagi ketma-ketlikni qanoatlantiruvchi barcha reaksiya tenglamalarini keltiring va barcha noma‘lum moddalarni aniqlang.  
(Barcha moddalar tarkibida azot atomi mavjud deb qabul qilinsin).



## SILIKAT SANOATI

1. Oddiy shishani formulasi qanday?  
J:  $\text{Na}_2\text{O}$ ;  $\text{CaO} \cdot 6\text{SiO}_2$
2. Qaysi reaksiya orqali shisha olinadi?  
J:  $\text{Na}_2\text{CO}_3 + \text{CaCO}_3 + 6\text{SiO}_2 \rightarrow \text{Na}_2\text{O} \cdot \text{CaO} \cdot 6\text{SiO}_2 + 2\text{CO}_2$
3. Qaysi oksidlar yordamida shishaga ko‘k rang (a), och yashil rang (b), to‘q qizil (c) ranglar berish mumkin?  
J: a –  $\text{CaO}$ ; b – xrom oksidi; c –  $\text{MnO}$ .
4. Polimer – betonni temir betondan afzalligi nimada?  
J: Birinchidan chang va chirish nimaligini bilmaydi, ikkinchidan radioaktiv nurlarni ushlab qolish xususiyatiga ega.
5. O‘zbekistonlik qaysi olimlar O‘rta Osiyo Respublikalari uchun zarur bo‘lgan maxsus sement ishlab chiqarishga salmoqli xissa qo‘shmoqdalar?

J: Y.Toshpo`latov, T.O.Otaqo`ziyev, J.K.Odilov, M.G`ulomov, M.Ahmedovlar.

7. Nefelin va anortit tabiiy silikatlarining formulalari qanday?

J: Nefelin –  $\text{Na}_2[\text{Si}_2\text{Al}_2\text{O}_8]$

Anortit –  $\text{Ca}[\text{Si}_2\text{Al}_2\text{O}_8]$

9. Kremniy (IV) – oksidni gibridlanish turi qanday?

J:  $\text{sp}^3$ .

10. Sulfat kislotaga chidamli (a) va asbosement mahsulotlar ishlab chiqarishga mo`ljallangan sementlar (b) nomi nima?

J: a – portlandsement

b – portlandsement

### KARBONAT KISLOTA VA UNING TUZLARI

1. Agar karbonatlar va boshqa tuzlar aralash holda berilgan bo`lsa, ularning mavjudligini qanday bilsa bo`ladi?

J: Kuchliroq kislota ta`sir ettirib bilish mumkin, chunki bu jarayonda osonlik bilan  $\text{CO}_2$  ajralib chiqadi.

3. Tuproqni ohaklash natijasida kislotaliligini kamaytirishdan tashqari tuproqqa qanday ta`sir etadi?

J: Tuproqning tuzilishini yoki strukturasi ham yaxshilaydi, chunki bu jarayonda tuproqning g`ovakligi ortadi.

4. Soda nima maqsadlarda ishlatiladi?

J: 1) to`qimachilik; 2) bo`yoq hosil qilish; 3) qog`oz va yog` sanoatlarida; 4) sovun va neftni qayta ishlash sanoatida, har xil kimyoviy birikmalarni hosil ishlarida qo`llanadi.

5. Qadim zamonlarda soda qanday usulda olingan?

J: Misr va boshqa joylarda uchraydigan tabiiy, qatlamlaridan, konlardan, tuproqlarda o`sadigan o`simliklarning va dengiz o`simliklarning kulidan olinar edi.

6. Soda hosil qilishning iqtisodiy ahamiyatga ega bo`lgan sulfat usulini kim va qachon ishlab chiqqan?

J: Leblan 1791 – yil.

7. Sulfat usuli qanday tartibda olib boriladi va u necha bosqichdan iborat?

J: 1) osh tuziga sulfat kislota ta`sir ettirib,  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  hosil qiladi.

2)  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  ohaktosh va ko`mir bilan qattiq qizdirilib, natriy sulfidgacha qaytariladi.

3) so`ngra hosil bo`lgan  $\text{Na}_2\text{S}$  ohaktosh bilan ishlash natijasida soda olinadi.

8. Sulfat usulida soda olishni reaksiya tenglamalarini yozing?

J: 1)  $2\text{NaCl} + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow 2\text{HCl} + \text{Na}_2\text{SO}_4$

2)  $\text{Na}_2\text{SO}_4 + 2\text{C} \Rightarrow \text{Na}_2\text{S} + 2\text{CO}_2$

3)  $\text{Na}_2\text{S} + \text{CaCO}_3 \Rightarrow \text{Na}_2\text{CO}_3 + \text{CaS}$

9. Soda olishda ammiak usulini kim va qachon kashf etgan?

J: 1863 – yilda belgiyalik olim Solvey.

10. Ammiakli usulda soda olishning birinchi bosqichida olingan moddani tarixiy nomi nima?

J: Ichimlik soda.

11. Ammiakli usulni sulfatli usuldan eng ahamiyatli tomoni nimada?

J: Hechqanday chiqindi chiqmaydi.

13. Uglerodning tabiatda davriy aylanishi qanday boradi?

J: Uglerod o`simliklardan hayvon organizmlarga o`tadi. Ular organizmga yetarli quvvatni taminlash natijasida qaytadan  $\text{CO}_2$  aylanadi. Nafas chiqarish organlari yordamida  $\text{CO}_2$  atmosferaga chiqariladi. Yana qaytadan yuqoridagi o`zgarish takrorlanadi.

14. Kremniy qayerlarda uchraydi?

- J: O`simliklarning poyalari tarkibida, suv o`tlarining qobig`ida, hayvonlarning gavdasida, qushlarning qanotlari va patlarida, hayvonlarning junlarida.
15. Toza kremniy qaysi reaksiya orqali olinadi?  
J:  $\text{SiO}_2 + \text{Mg} \rightarrow 2\text{MgO} + \text{Si}$
16. Sanoatda kremniy qaysi reaksiya orqali olinadi?  
J:  $\text{SiO}_2 + \text{C} = 2\text{CO} + \text{Si}$
17. Kremniy kristallarining ranglari qanday?  
J: 1) Amorf kremniy – qo`ng`ir tusli kukun  
2) Kristall kremniy – kunrang tusli modda
20. Oq loy qanday oksidlar yig`indisidan iborat va uning ikkinchi nomi nima?  
J:  $\text{Al}_2\text{O}_3 * 2\text{SiO}_2 * 2\text{H}_2\text{O}$  Kaolin.
21. Dala shpati yemirilishi natijasida olingan alumino silikatni ikkinchi nomi nima?  
J: oq loy yoki kaolin.
22. Dala shpatidan qanday qilib potash olish mumkin? Reaksiya tenglamalari yordamida ifodalang?  
J:  $\text{K}_2\text{O} * \text{Al}_2\text{O}_3 * 6\text{H}_2\text{O} + 2\text{H}_2\text{O} + \text{CO}_2 \rightarrow \text{Al}_2\text{O}_3 * 2\text{SiO}_2 * 2\text{H}_2\text{O} + 4\text{SiO}_2 + \text{K}_2\text{CO}_3$
23. Kremniyning yer qobig`ida eng ko`p tarqalgan mineralining formulasi qanday?  
J:  $\text{K}_2\text{O} * \text{Al}_2\text{O}_3 * 6\text{SiO}_2$
25. Qattiqligi olmosdan qolishmaydigan Kremniy birikmasi qaysi reaksiya orqali olinadi?  
J:  $\text{SiO}_2 + 3\text{C} = \text{SiC} + 2\text{CO}$
26.  $\text{SiO}_2$  va  $\text{CO}_2$  uchun umumiy va xususiy jihatlarini farqlang?  
J:  $\text{CO}_2$  suvda eriydi,  $\text{SiO}_2$  erimaydi. bog` qutbli molekula qutbsizligi har xil  
Gibridlanishi farq qiladi valentligi bir xil  
fazoviy strukturasi har xil, oksidlanish darajasi bir xil
27.  $\text{K}_2\text{SiO}_3$  va  $\text{Na}_2\text{SiO}_3$  to`qimachilik sanoatida nima maqsadda ishlatiladi?  
J: gazlamalarga yonmaydigan xususiyat berish uchun.
29. Qaysi xossasiga asosan kvarts shishalaridan tibbiyotda nur sochuvchi lampalar tayyorlashda ishlatiladi?  
J: Ultra binafsha nurlarni o`tkazgani uchun.
30. Temirning kremniyga boy minerallaridan nima maqsadda ishlatiladi?  
J: kislotaga bardosh beradigan material sifatida.
32. Kremniy odatdagi sharoitda qaysi elementlar bilan reaksiyaga kirishadi?  
J: ftor,  $\text{N}_2$  va Li bilan
33. 3 xil usulda Kremniy oling?  
J: 1)  $\text{SiO}_2 + \text{MgO} = 2\text{MgO} + \text{Si}$   
2)  $\text{SiO}_2 + 2\text{C} = 2\text{CO} + \text{Si}$   
3)  $\text{K}_2\text{SiF}_6 + 4\text{K} = 6\text{K} + \text{Si}$

### DAVRIY SISTEMADAGI TO`RTINCHI GURUPPA ELEMENTLARI

2. Qo`rg`oshindan uglerod elementiga o`tgan sari atomlarning elektromanfiyligi, metallik xossasi, atom radiusi, Oksidlovchilik xossalarin qanday o`zgaradi?  
J: ortadi, kamayadi, kamayadi, ortadi.
3. Ugleroddan qo`rg`oshin elementiga o`tgan sari atomlarning elektromanfiyligi, metallik xossasi, atom radiusi, Oksidlovchilik xossalarin qanday o`zgaradi  
J: kamayadi, ortadi, ortadi, kamayadi.
6. Olmosning qattiqligi qanday shkala yordamida o`lchanadi va uning qattiqligi nechchiga teng?  
J: MOOS shkalasida 10 ga teng.

9. IV gramma elementlarining vodorodli birikmalaridan qaysi birikmasi kislota xossasiga ega.  
J: birortasi ham kislota xossasiga ega emas.
11. Olmos sanoatda qanday maqsadlarda ishlatiladi?  
J: shishalarni kesishda, tog` jinslarini parmalash, haykaltaroshlik ishlarida ishlatiladi.
12. Jilvirlash natijasida qayta ishlangan olmos nima deyiladi?  
J: brilliant.
13. Olmos issiqlikni va elektr tokini qanday o`tkazadi?  
J: issiqlikni yaxshi o`tkazmaydi, elektr tokini ham deyarli o`tkazmaydi.
15. Uglerodning eng yumshoq allotropik shaklining rangi qanday?  
J: grafit, kulrang.
16. Grafit deb nomlanishiga nima sabab?  
J: Qog`ozga surkalganida iz qoldirishi.
17. Grafitni boshqa metallmaslardan farqli tomoni?  
J: Elektr quvvatni yaxshi o`tkazish bilan.
18. Grafitdan nima maqsadlarda foydalaniladi?  
J: elektrodlar tayyorlashda foydalaniladi.
19. Karbin nechanchi yilda sintez qilingan?  
J: 1960 – yilda
22. Qattiqligi ortib borish tartibida joylashtiring? Olmos, grafit, karbin, ko`mir.  
J: grafit, karbin, ko`mir, olmos,
24. Ko`mirni eng muhim navlari qaysilar?  
J: ko`ks, pistako`mir, suyok ko`miri, qurundir.
25. Ko`kslash deb nimaga aytiladi?  
J: tosh ko`mirni havosiz joyda qizdirib olinishi.
27. Fosgen zaharli modda uni nima maqsadlarda keng foydalanilmoqda?  
J: turli bo`yoqlar, dori – darmonlar ishlab chiqarishda.
28. CO<sub>2</sub> Yonib turgan cho`qni o`chirish xususiyatga ega. Lekin nima uchun yonayotgan magniyni bu usulda o`chirib bo`lmaydi?  
J: MgO + CO<sub>2</sub> = MgCO<sub>3</sub>
29. Qadimda Neopal shahridagi g`orlardan birida insonlar hayot kechira olgan, lekin, bu g`orda yashovchi itlar qirilib ketgan va bu g`or shu sababli ham itg`ori deb atalgan. Bu hodisaning sababi nima?  
J: CO<sub>2</sub> havoga nisbatan og`irroq bo`lganligi uchun karbonat angidrid yerto`lalarda va quduqlarning tagida yig`ilib qoladi.

### **METALLAR.**

1. Odatdagi sharoitda, metallardan qaysi birining agregat holati suyuq?  
Simob
2. Quyidagi metallarning plastiklik hosasi qanday o`zgaradi? Fe<sup>1</sup>- Pb<sup>2</sup>- Zn<sup>3</sup>- Sn<sup>4</sup>- Au<sup>5</sup>- Ag<sup>6</sup>- Cu  
1) Ortadi, 2) kamayadi, 3) Ortadi, 4) Ortadi, 5) kamayadi, 6) kamayadi.
3. .... ko`p bo`lsa, kristal panjarasi shuncha puxta, metalning suyuqlanish qaynash temperaturasining yuqori bo`ladi. Nuqtalar o`rniga kerakli so`zlarni qo`ying?  
“Metallarda valent elektronlar qancha”
4. Metallar rangiga ko`ra shartli ravishda qora va rangdor metallarga bo`linadi. Qora rangli metallarga qanday metallar kirmaydi?  
Temir va uning qotishmalaridan tashqari, barcha metallar

5. Metallmaslarning elektr tokini va issiqlikni yaxshi o'tkazmasligiga sabab nima?  
Ularda kristal panjara tugunlarida erkin elektronlar bo'lmastir.
6. Eng qattiq metall, eng suyuq metall, eng yahshi elektr to'kini o'tkazadigan metall, eng plastik metall, eng og'ir metall, eng yengil metall va suyuqlanish haroti eng katta bo'lgan metallarni ko'rsating?  
Xrom, Simob, Kumush, Oltin, Osmiy ( $p=22.6$ ), Litiy ( $p=0.053$ ) Volfram ( $3390^{\circ}\text{C}$ ),
7. Metallarning zichligi har xil bo'ladi. Ayrim metallarning zichliklari yuqori bo'lishiga nima sabab bo'ladi?  
a) Kristal panjara tugunlari har xil bo'lishi (Masalan-Atom, metall, ion bo'lishi)  
b) Metallning atom massasi qancha kichik bo'lsa va atomning radiusi qancha katta bo'lsa, uning zichligi shuncha kichik bo'ladi.
8. Metallarning kuchlanishlar qatori kim tomonidan mukamal o'rganilgan va bu qator yordamida qanday reaksiya mexanizmi borishini ko'rsatib bergan?  
Rus olimi Beketov, O'rin olish mexanizmidan borishini ko'satgan,
9. Metallarning kuchlanishlar qatori yordamida qanday ma'lumotlarni olish mumkin?  
a) b) c)
10. Metallarning kremniy, fosfor va uglerod bilan xosil qilgan birikmalarni qanday nomlar bilan ataladi?  
Silinitlar, fosfidlar, karbidlar,
11. Beketov qatorida Hodorodan keyin joylashgan metallarning tabiatda ko'pincha qanday holatda uchrashini ko'rsating?  
Hodorodan keyin joylashgan metallar (Cu, Hg, Ag) - bazan sof, ko'pincha birikma holda (Au, Pt) lar esa faqat sof holatda uchraydi.
12. Tabiatda Al, Fe, Na, K, Mg, Ca metallari eng ko'p tarqalgan metallar hisoblanadi. Shuning uchun bu elementlar hayvonot, inson va o'simliklar hayotida katta ahamiyatga ega. Masalan temir, magniy, kaliy, Kalsiy ruhlar qanday ahamiyatlarga ega?  
Temir qoning tarkibidagi gemoglobinning asosi Magniy esa o'simliklarning yashil qismidagi xlorofilning asosi, Kaliy o'simliklarning motadil o'sishini taminlaydi, kalsiy esa suyak skeletining hosil bo'lishida, Ruh esa jinsiy garmonlar tarkibiga kiradi.
13. Quyidagi rudalarning nomini ko'rsating?  
1)  $\text{Fe}_2\text{O}_3$  2)  $\text{Fe}_2\text{O}_3$  FeO 3)  $\text{Al}_2\text{O}_3-2\text{H}_2\text{O}$  4)  $\text{MnO}_2$  5)  $\text{Cu}_2\text{O}$  6)  $\text{Al}_2\text{O}_3$  7)  $\text{TiO}_2$  8)  $\text{Fe}_2\text{O}_3$  3 $\text{H}_2\text{O}$  9)  $\text{SnO}_2$   
 $\text{Fe}_2\text{O}_3$ -Qizil temir tosh  $\text{Fe}_2\text{O}_3$  3 $\text{H}_2\text{O}$ -Qo'ng'ir temir tosh  $\text{Fe}_2\text{O}_3$  FeO-magnitli temir tosh  
 $\text{Al}_2\text{O}_3-2\text{H}_2\text{O}$ -aluminium boksit  
 $\text{MnO}_2$ - manganesning pirolizit  $\text{Cu}_2\text{O}$ -mis kupriti  $\text{Al}_2\text{O}_3$ - Korund  $\text{TiO}_2$ - Titanul  $\text{SnO}_2$ -Qalay rudalari
14. Sulfidli Simobli qorg'oshinli rudalarga qanday rudalar misol bo'ladi?  
Mis kolchedani- $\text{CuFeS}_2$  Kinovar- $\text{HgS}$  Gelnit yoki qo'rg'oshin yoltrog'i- $\text{PbS}$  Mis yaltrog'i- $\text{Cu}_2\text{O}$
15. Polimetall rudalarga qanday rudalari misol bo'ladi?  
Sulfidli rudalar tarkibida kumush, oltin, qorg'oshin, va zux metallari birgalikda aralash holda bo'lgan rudalar
16. Rudalarning asosiy massasini bekorchi jinslardan tozalashda qanday usuldan foydalaniladi va bu usul nimaga asoslangan?  
Flotatsiya usuli - bu usul ruda mineral va bekorchi jinslardagi mayda zarachalarning suv bilan ho'lanishi turlicha bo'lishiga asoslangan.
17. Flotatsiya qilish uchun mo'ljalangan rudani flotatsiya qilishdan oldin tegirmonda yaxshilab maydalaniladi. Hosil qilingan kukun suvga solib qaynatiladi va har bir tonna rudaga qanday maddadan qancha miqdorda qo'shiladi?  
Qarag'ay moyidan To'nasiga 400 gr qo'shiladi.

18. Alanga spektrlarini tekshirish natijasida qaysi elementlar kashf etilgan.  
Rb va Cs
19. Li elementini barqaror birikmalarni tanlang.  
1)  $\text{LiCl} \cdot \text{H}_2\text{O}$ ;      2)  $\text{LiCl} \cdot 3\text{H}_2\text{O}$ ;      3)  $\text{LiO}_4$ ;      4)  $\text{LiF}_2$ :
20. LiH ning krisstal tuzilishi qaysi moddaga o`xshaydi.  
NaCl
21. Litiy elementini tabiiy izotoplarini ko`rsating.  
 ${}^6_3\text{Li}$ ;       ${}^7_3\text{Li}$ ;
21. Suv osti kemalarida  $\text{O}_2$  manbai sifatida ishlatiladigan regeneratsiya reaksiyasini ayting.
22. Mirabilit tarkibida kiruvchi ishqoriy metal qaysi  
Na
23. Kimyoviy toza NaOH olish uchun qanday usul qo`llaniladi.  
etil spirtida eritilib qayta kristallanadi
24. Qaysi moddaga suv ta`sir etilsa  $\text{NaO} + \text{H}_2\text{O}_2 + \text{O}_2$  ajraladi.       $\text{NaO}_2 + \text{H}_2\text{O}$
25. 100 gr NaCl  $\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$  spirtida eritilganda qancha gr yangi modda hosil bo`ladi.  
Yangi modda hosil bo`lmaydi
26. Ishqoriy metall xloridlarini suvdagi eritmalaridan suvsiz holda kristallanadiganlarini tanlang.  
RbCl, KCl, CsCl
27. Qora poroxning tarkibiy qismlari qanday  
68%  $\text{KNO}_3$ ; 17% C; 15% S
28. Qora poroxning portlash jarayonidan necha litr (n.sh.) gaz xosil bo`ladi.
29. Alangani binafsha ranga bo`yovchi ishqoriy metal ioni qaysi
30. Javel suvining olinishi
31. Quyidagi ketma – ketlikda ionlarning tuzlari barqarorligi qanday o`zgaradi.  
 $\text{Na}^+ \rightarrow \text{Rb}^+ \rightarrow \text{K}^+ \rightarrow \text{Cs}^+ \rightarrow \text{Li}^+$  ortadi, kamayadi, ortadi, kamayadi
32. Ishqoriy metall birikmalari o`zaro izomorf bo`lgan elementlarni belgilang.  
K; Rb; Cs
33. Silvinit minerali tarkibida necha (%) kaliy borligini toping.  
29.3
34. Quyidagi keltirilgan birikmalar alangani qanday rangga bo`yaydi.  
1) KCl      2) KBr      3)  $\text{K}_2\text{SO}_4$       4)  $\text{K}_3\text{PO}_4$       Hammasi binafsha
35. Lipedit minerali tarkibida uchrovchi elementlarni toping.  
Li; Na, K; Rb
36. Qaysi birikma tarkibida 4 xil ishqoriy metallar bor.  
lepidolit
37. Seziy qo`shimcha sifatida uchraydigan polluks deb ataladigan birikma qaysi oroldan topilgan.  
Elba
38. Karnallit va kainit tarkibidagi kaliyning massa ulushi nisbati qanday bo`ladi.  
1; 0
39. Kaliyning qaysi birikmasining zichligi litiy zichligidan 2,846 martta katta.  
A) KOH      B) KCl      C) KH      D)  $\text{K}_2\text{CO}_3$

40. 801°C da suyuqlanadigan va 100 gr H<sub>2</sub>O da 37,9 gr eriydigan moddaning krisstal tuzilishi qaysi modda krisstall tusilishiga o`xshaydi.  
A) NaCl B) LiH C) Li<sub>2</sub>O D) A va B
41. NaOH 100°C da 100 gr H<sub>2</sub>O da eritilgandagi massasi qaysi moddaning molkulyar massasiga teng.  
A) Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> B) H<sub>2</sub>(SO<sub>4</sub>)<sub>3</sub> C) Cr<sub>2</sub>(SO<sub>4</sub>)<sub>3</sub> D) Li<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>
42. Qaysi tuzlar xosil bo`lishiga asoslanib,eritmada kaliy ioni bor yoki yo`qligini aniqlash mumkin.  
A) KHCO<sub>3</sub> · K<sub>4</sub>[Ca(NO<sub>2</sub>)<sub>6</sub>] B) KHC<sub>4</sub>H<sub>4</sub>O<sub>6</sub> · K<sub>3</sub>[Co(NO<sub>2</sub>)<sub>6</sub>] C) KHC<sub>2</sub>H<sub>2</sub>O<sub>3</sub> · K<sub>3</sub>[Fe(NO<sub>2</sub>)<sub>6</sub>] D) KHC<sub>4</sub>H<sub>4</sub>O<sub>6</sub> · K<sub>3</sub>[Fe(NO<sub>2</sub>)<sub>6</sub>]
43. Suvda yaxshi eruvchan tuzlarni belgilang.  
A) CsCl; Rb<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>; KJ; KHC<sub>4</sub>H<sub>4</sub>O<sub>6</sub> C) K<sub>3</sub>PO<sub>4</sub>; CsAl(SO<sub>4</sub>)<sub>2</sub>·12H<sub>2</sub>O; Cs<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>; KBr<sub>2</sub>  
B) K<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>; K<sub>3</sub>[Co (NO<sub>2</sub>)<sub>6</sub>]; RbCl; KNO<sub>3</sub> D) KNO<sub>3</sub>; RbCl; Rb<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>; CsCl
44. O`zaro izomorf bo`lgan 3 ta moddaning qaysi birikmalari suvda juda ko`p issiqlik chiqarish bilan eriydi.  
A) R<sub>s</sub>OH B) CsOH C) KOH D) NaOH
45. Sesternalar tayyorlashda ishlatiladigan marganesli po`lat qotishmaning tarkibini aniqlang?  
Fe – 83; Mn – 12; C – 1.
46. Samalyot sozlikda ishlatiladigan dur malyuminiy qotishmasining foiz tarkibini ko`rsating?  
Al – 95%; Cu – 4%; Mg, Mn, Fe, SiO – 0,5%
47. Qotishmalarni hususiyatlarini birinchi bo`lib kim o`rgangan?  
Kurnakov
48. Intermetall qotishmalar juftini ko`rsating?  
Cu – Zn; Cu – Mg; Cu – Zn; Zn – Hg; No – Cd.
49. Qanday korroziyalar kimyoviy korroziyalanish va elektor kimyoviy korroziyalanish deyiladi?  
Kimyoviy – quruq gazlar, kislorod, sulfit angidrid, vodorod xlorid, vodorod sulfid.  
Elektor kimyoviy – namlik va elektrolitlar ta`sirida.
50. Tamirning korroziyalanishdagi jarayon sxemasini ko`rsating? (Reaksiyasi)
51. Oltin, temir, alyuminiy va kalsiy qanday usullarda olinadi?  
a – gidrometallurgiya; b – metallotermiya; c – alyuminiytermiya; d – elektrometallorgiya.
52. Berilydan Radiyga tomon 1)atomlarning radiusi 2)nisbiy elektrtomanfiyligi 3)oksidlovchilik 4)Ion radiusi 5)ionlanish potensiyanaligi 6)suvda eruvchanligi 7)asos xosasi 8)kimyoviy faoligi qanday o`zgaradi.  
1)Ortadi 2)Ortadi 3) Kamayadi 4)Ortadi 5)Ortadi 6)Ortadi 7)Ortadi 8)Ortadi
53. Ikkinchi guruh elementlari orasida ion radiusi eng kichik bo`lgan element ko`proq qayday bog`lanishli birikmalar hosil qiladi.  
Beriliy - ko`p birikmalari kovalent bog`lanishli.
54. Quyidagi elementlarni asosan qanday bog`lanishli birikmalar hosil qilishini juftlab ko`rsating.  
Be → Mg → Ca → Sr → Ra → Ba  
Be-kovalent bog`klanish Mg-kovalent va ion bog`lanish Ca - faqat ion bog`lanishli Sr- faqat ion bog`lanishli Ba- faqat ion bog`lanishli Ra- faqat ion bog`lanishli
55. Nima uchun Be va Mg gidrosidlarining suvda eruvchanligi qolgan guruh elenetlarning gidrosidlariga nisbatan kamroq bo`ladi.  
Chunki bularning bog`lanishi Be-kovalent bog`klanish Mg-kovalent va ion bog`lanish Bularda esa (Ca - Sr- Ba- Ra) ion bog`lanishli
56. Radiydan Berilyga tomon ularning xosil qilgan A) xloridli,nitratli,sulfatli, tuzlaring suvda eruvchanligi va B) nitritli peroksidli birikmalarining barqarorligi qanday o`zgaradi  
A) xloridli,nitratli,sulfatli, tuzlaring suvda eruvchanligi- Ortadi B) nitritli peroksidli birikmalarining barqarorligi- Kamayadi

57. Ikkinchi guruh elementlarning qanday tuzlari suvda yomon eriydi.  
Sulfatli, fosfatli, xromatli, oksalatli, karbanatli, ftorli, tuzlari suvda yomon eriydi
58. Ishqoriy metallarning peroksidlari ishqoriy-yer metallarining peroksidlariga nisbatan \_\_\_\_\_?  
Barqaror
59. Beriliy Kalsiy va Magniy oksidlarning suvda va kislotalarda erish hususiyatlari qanday.  
BeO-Suvda va kislotalda erimaydi CaO-Suvda va kislotalda yahshi eririydi MgO-suvda oz eriydi kislotalda yahshi.
60. Kalsiy birikmasining asosiy yirik konlari qayerlarda joylashgan.  
Rossiya, AQSH, Aljir, Ruminiya va boshqa davlatlarda bor. Respublikamiz-da ham kalsiy birikmalarining konlari uchraydi.

### ISHQORIY VA ISHQORIY-YER METALLAR.

- Ishqoriy metallar nima sababdan kerosin ichida saqlanadi.  
Havoda oksidlanadi.
- Ishqoriy metallarning havoda oksidlanish reaksiyalarini yozing.  
Litiy oksid hosil qiladi, qolganlari esa peroksidlar hosil qilib oksidlanadi.
- Ishqoriy metall oksidlarini ularning peroksidlaridan qay yo'l bilan olish mumkin  
shu metalni Peroksidi bilan birgalikda qizdirish orqali
- Ishqorlar nima sababdan suvda juda yaxshi eriydi  
Metall ionlarining zaryadi kichik, radiusi esa kattaligi uchun
- Peroksidlarga issiq va sovuq suv ta'siri reaksiya tenglamalarini yozing.  
 $\text{Na}_2\text{O}_2 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{NaOH} + \text{H}_2\text{O}_2$  sovuq  
 $\text{Na}_2\text{O}_2 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{NaOH} + \text{O}_2$  issiq
- Ishqorlar texnikada qanday yo'l bilan olinadi  
Xloridlarining suvdagi eritmasini elektroliz qilib
- Ishqoriy metallarning karbonat va bikarbonat tuzlari haqida nimalarni bilasiz.  
Ishqoriy metallar (Li dan boshqasi) karbonat ( $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ) va bikarbonatlar  $\text{NaHCO}_3$  hosil qiladi. Na dan Cs ga tomon ular bikarbonatlarining issiqqa chidamliligi oshib boradi. Karbonatlari suvda yaxshi, bikarbonatlari esa yomon eriydi.
- Natriy va kaliyning qaysi tuzlari cho'kma va ular haqida nimalar bilasiz.  
Natriy va kaliy tuzlarining deyarli hammasi suvda yaxshi eriydi. Faqat  $\text{Na}[\text{Sb}(\text{OH})_6]$ ,  $\text{KHC}_4\text{H}_4\text{O}_6$ ,  $\text{K}_3[\text{Co}(\text{NO}_2)_6]$  birikmalari suvda erimaydi. Analitik kimyoda, ko'pincha, shu tuzlarning hosil bo'lishiga qarab  $\text{K}^+$  va  $\text{Na}^+$  topiladi.
- Natriyning eng ko'p uchraydigan birikmalari —  
natriy xlorid  $\text{NaCl}$  (osh tuzi), natriy nitrat ( $\text{NaNO}_3$ ) silvinit ( $\text{KCl} \cdot \text{NaCl}$ ) va glauber tuzi ( $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ ) dir.
- Kaliyning eng ko'p uchraydigan birikmalari  
silvinit ( $\text{KCl} \cdot \text{NaCl}$ ), karnallit ( $\text{KCl} \cdot \text{MgCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ ), kainit ( $\text{KCl} \cdot \text{MgSO}_4 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ ) va kaliy xlorid ( $\text{KCl}$ ) dir.
- Osh tuzining asosiy konlarini sanang  
Donbassda, Janubiy Uralda, Orenburg shahri yonida, Kavkaz, O'rta Osiyo va Qozog'istondadir.
- Kaliyli tuzlar qayerlarda ko'proq uchraydi  
Dunyoda kaliyli tuzlarning eng katta qismi Uralda — Solikamskda (silvinit  $\text{KCl} \cdot \text{NaCl}$  va karnallit  $\text{KCl} \cdot \text{MgCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  minerallari) topilgan. Belorussiyada (Soligorsk shahrida) kaliyli tuzlarning katta qatlamlari bor.



13. Natriy metalini 3 xil, kaliy metalini 2 xil usulda oling.  
 Natriy — a) NaCl va b) NaOH suyuqlanma elektrolizi,  
 Kaliy — a)  $KCl + Na \rightarrow NaCl + K$  b)  $KOH + Na \rightarrow NaOH + K$   
 c)  $Na_2CO_3 + 2C \rightarrow 2Na + 3CO$
14. Natriy va kaliyning fizik xossalarini sanang  
 Natriy va kaliy juda plastik, yumshoq, elektr toki va issiqlikni yaxshi o'tkazadi. Natriy va kaliy — kumush rangli oq metallar, natriyning zichligi  $0,97 \text{ g/sm}^3$ , kaliyniki —  $0,86 \text{ g/sm}^3$ . Natriy  $97,8^\circ\text{da}$  suyuqlanib,  $900^\circ\text{da}$  qaynaydi. Kaliy esa  $69,5^\circ\text{da}$  suyuqlanib,  $776^\circ\text{da}$  qaynaydi. Ikkala metall ham suvdan vodorodni shiddatli siqib chiqaradi.
15. Natriy metali va uning birikmalari ishtirokida boradigan 10 xil reaksiya yozing
16. Kaliy metali va uning birikmalari ishtirokida boradigan 10 xil reaksiya yozing
17. Natriy va kaliy metallari nima maqsadlarda ishlatiladi  
 Natriy va kaliy o'zlarining peroksidlari va amidlarini ( $Na_2O_2$ ,  $K_2O_2$ ,  $NaNH_2$ ,  $KNH_2$ ) olishda, ularning qotishmalari yadro reaksiyalarida issiqlik tashuvchi sifatida, titan ishlab chiqarishda, organik moddalarni sintez qilishda, metall-organik birikmalar olishda ishlatiladi.
18. Natriy va kaliy ishqorlarining fizik xossalarini ayting  
 Natriy va kaliy ishqorlari oq xira tusli qattiq moddalar bo'lib,  $300 — 400^\circ\text{da}$  eruvchan kristallardir. Suvda va spirtida yaxshi eriydi. Kuchli elektrolitlar bo'lganligi uchun suvdagi eritmalarda to'liq dissotsilanadi. Havo namligini va havodagi karbonat angidridni yutish xususiyatiga ega bo'lganligi uchun ular gazlarni qurituvchi sifatida ham qo'laniladi. Bu ishqorlarning suvli eritmaları havodagi karbonat angidridni yutish xossasiga ega.
19. Sovuq va issiq ishqor eritmalarining xlor gazi bilan reaksiya tenglamasini yozing  
 $2NaOH + Cl_2 \rightarrow NaCl + NaClO + H_2O$  (sovuqda)  
 $6NaOH + 3Cl_2 \rightarrow 5NaCl + NaClO_3 + 3H_2O$  ( $70^\circ\text{C}$  gacha qizdirilganda)
20. KCl tuzidan bertole tuzi olindi. Reaksiyada ishtirok etgan xlorning ekvivalentini aniqlang
21. Na, K, Ca, Mg, Zn va Hg metallarining kons: (nitrat, sulfat va xlorid) kislotalarga ta'sir reaksiyasini yozing.
22. NaOH sanoatda nima maqsadlarda ishlatiladi.  
 neft mahsulotlari, benzin va kerosinni begona moddalardan tozalashda, sun'iy ipak sanoatida, konchilik sanoatida, soda ishlab chiqarishda va kimyo sanoatining boshqa tarmoqlarida ishlatiladi.
23. Na, K, Ca, Mg, Zn va Hg metallarining suy: (nitrat, sulfat va xlorid) kislotalarga ta'sir reaksiyasini yozing.
24. Na, K, Ca, Mg, Zn va Hg metallarining juda suy: (nitrat, sulfat va xlorid) kislotalarga ta'sir reaksiyasini yozing.
25. Tuproqda kaliy va uning birikmalari kam bo'lsa .....  
 Kaliy o'simliklarning oziqlanishi uchun zarur element hisoblanadi. Tuproqda kaliy va uning birikmalari kam bo'lsa, hosildorlik ancha kamayib ketishi mumkin, Kaliy asosida hosil qilinadigan birikmalarning 90 % ga yaqin qismi o'g'itlar hosil qilish maqsadlarida ishlatiladi.
26. tozalanmagan o'g'itlar — .....  
 bular kaliy va natriyning xlorli birikmalaridir. Silvinitlar ( $KCl \cdot NaCl$ ) va magniy bilan kaliy tuzlarining birikmalari ( $MgSO_4 \cdot KCl \cdot 3H_2O$ ) kainit deyiladigan minerallardan to'qonsimon qilib tayyorlanadi;
27. konsentrlangan o'g'itlar — .....

kaliy xlorid va kaliy sulfat tuz-larini qayta ishlash natijasida hosil qilinadigan o'g'itlar bo'lib, konsentratlar deyiladi, chunk! bu o'g'itlar aralash o'g'itlarni kaliy birikmalari bilan boyitish asosida hosil qilinadi, tarkibida potash  $K_2CO_3$  bo'ladigan yog'och va torf kuli ham konsentrlangan o'g'itlarga kiradi.

28. Kalsiyning fizik xossalari.

Kalsiy kumush rang-oq va ishqoriy metallarga qaraganda ancha qattiq, lekin yengil metallidir. Zichligi  $1,55 \text{ g/sm}^3$  ga teng. Kalsiy  $850^\circ\text{da}$  suyuqlanib,  $1482^\circ\text{da}$  qaynaydi.

29. Kalsiyning tabiiy izotoplarini sanang

Tabiiy kalsiy massa sonlari 40 (asosiy izotopi), 42, 43, 44, 46 va 48 bo'lgan oltita izotopi aralashmasidan iborat.

30. Nima sababdan kalsiy og'zi zich berkitiladigan idishlarda yoki kerosin ostida saqlanadi

Kalsiy havoda oson oksidlana-di, shuning uchun u og'zi zich berkitiladigan idishlarda yoki kerosin qavati ostida saqlanadi.

31. Kalsiy qaysi metallar bilan qotishmalar hosil qiladi

Kalsiy turli metallar bilan masalan, Zi, Mg, Pb, Cu, Be, Zn, Cd, Al, Ag, Hg tegishli qotishmalarni hosil qilishi mumkin.

32. Kalsiy nam havoda qaysi moddalar bilan to'g'ridan to'g'ri kimyoviy reaksiyaga kirishadi.

Kislorod, azot va suv bilan.

33. Kalsiy kislorod , vodorod , galogenlar , oltingugurt va azot bilan qanday haroratlarda birikadi. Reaksiya tenglamalarini yozing.

kislorod bilan  $350 - 450^\circ\text{C}$  da, vodorod bilan  $150 - 170^\circ\text{C}$  da, galogenlar bilan  $400^\circ\text{C}$  da, oltingugurt va azot bilan  $300 - 400^\circ\text{C}$  da birikadi:



34. Kalsiyning ammiak bilan reaksiya tenglamasini yozing(qizdirilganda).

Kalsiy qizdirilganida gaz holdagi ammiak bilan reaksiyaga kirishib, aralash amid hosil qiladi. Uni kalsiy diamid ( $\text{Ca}(\text{NH}_2)_2$ ) va kalsiy ( $\text{CaH}_2$ ) gidrid hosil qiladi.

35. Kalsiyning har xil konsentratsiyadagi kislotalarga munosabati qanday

Kalsiy suyultirilgan kislotalar bilan kimyoviy reaksiyaga oson, konsentrlangan kislotalar bilan esa qiyin reaksiyaga kirishadi.

36. Kalsiy oddiy sharoitda qaysi moddalar bilan reaksiyaga kirisha oladi. Reaksiya tenglamalarini yozing.

oddiy sharoitda: havoda  $\rightarrow \text{CaO}, \text{Ca}_3\text{N}_2$

suv bilan  $\rightarrow \text{Ca}(\text{OH})_2$

spirt bilan  $\rightarrow \text{Ca}(\text{OC}_2\text{H}_5)$

ftor bilan  $\rightarrow \text{CaF}_2$

suyultirilgan kislotalar bilan  $\rightarrow (\text{HCl}, \text{H}_2\text{SO}_4, \text{HNO}_3)$

tegishli tuzlar ( $\text{CaCl}_2, \text{CaSO}_4, \text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ ) hosil qiladi;

37. Kalsiy qizdirilganda qaysi moddalar bilan reaksiyaga kirisha oladi. Reaksiya tenglamalarini yozing.

qizdirilganda: vodorod bilan  $\rightarrow \text{CaH}_2$

kislorod bilan  $\rightarrow \text{CaO}$

galogenlar bilan  $\rightarrow \text{CaX}_2 (\text{X} = \text{Cl}, \text{Br}, \text{I})$

oltingugurt bilan  $\rightarrow$  CaS

azot, fosfor, arsen, surma bilan  $\rightarrow$  Ca<sub>3</sub>N<sub>2</sub>, Ca<sub>3</sub>P<sub>2</sub>, Ca<sub>3</sub>As<sub>2</sub>,  
Ca<sub>3</sub>Sb<sub>2</sub>

uglerod bilan  $\rightarrow$  CaC<sub>2</sub>

gaz holdagi ammiak bilan  $\rightarrow$  Ca(NH<sub>2</sub>)<sub>2</sub> + CaH<sub>2</sub> larni hosil qiladi.


38. Kalsiy metali sanoatda qaysi metallarni olishda qaytaruvchi sifatida ishlatiladi.

(Na, K, Rb, Cs, Cr, Ti, Zr, Th)

39. So'ndirilgan ohak nima maqsadlarda ishlatiladi.

Uyni suvash ishlarida, g'ishtlarni bir-biriga mahkamlashda sement o'rniga ishlatish mumkin.

40. Ohakning qotishini reaksiya yordamida ifodalang.





41. 20°C da 0.5 litr suvda necha gramm kalsiy gidroksid eriydi.

0.8 g kalsiy gidroksid eriydi

42. Kalsiyning tabiatdagi kalsit, dolomit minerallari formulalarini korsating.

Kalsit- (CaCO<sub>3</sub>), Dolomit-(CaCO<sub>3</sub> • MgCO<sub>3</sub>)

43. Xlorli ohak qanday hosil qilinadi. Uning hosil bo'lish reaksiyasi



44. Xlorli ohak nima maqsadlarda ishlatiladi.

Xlorli ohak to'qimachilik sanoatida, qog'oz sanoatida va dezinfeksiya ishlarida keng qo'llaniladi.

45. Suvning qattiqligi tarkibidagi tuzlarning miqdoriga qarab qanday turlarga bo'linadi.

Suvning qattiqligi tarkibidagi bu tuzlarning miqdoriga qarab doimiy, muvaqqat va umumiy qattiqlikka bo'linadi.

46. Suvning muvaqqat qattiqligi deganda nimani tushunasiz va u haqida nimalar bilasiz.

Suvning muvaqqat qattiqligi deganda tarkibida kalsiy va magniyning bikarbonatlari bor suv tushuniladi. Bunday suv ohistalik bilan qizdirilganda, bikarbonatlar karbonatlarga aylanishi natijasida suvning tagiga cho'kadi va qattiqligi yo'qoladi:  $\text{Ca(HCO}_3)_2 \rightarrow \text{CaCO}_3 + \text{H}_2\text{O} + \text{CO}_2$

47. Suvning doimiy qattiqligi deganda nimani tushunasiz va u haqida nimalar bilasiz.

Kalsiy va magniy sulfat tuzi erigan suv *doimiy qattiqlikka* ega bo'lgan suv deyiladi. Bunday tuzli suvni qaynatish yo'li bilan yumshatib bo'lmaydi. Uni kimyoviy ishlov berish orqaligina yumshatish mumkin.

48. Suvning umumiy qattiqligi deganda nimani tushunasiz va u haqida nimalar bilasiz. U qanday ifodalanadi.

Muvaqqat va doimiy qattiqlikning yig'indisi umumiy qattiqlik deyiladi. Suvning umumiy qattiqligi 1 litr suvdagi kalsiy va magniy ionlarining milligramm-ekvivalentlari yig'indisi bilan ifodalanadi. Shuning uchun bunday suvda 20,04 mg/l Ca<sup>2+</sup> yoki 12,16 mg/l Mg<sup>2+</sup> ionlari bo'lishi ko'zda tutiladi.

49. Nima uchun qattiq suvni bug' qozonlarida ishlatib bo'lmaydi.

Bu tuzlar qozonning sirtida quyqa hosil qiladi va qozon tubiga cho'kib, ortiqcha miqdordagi yoqilg'i yoki elektr quvati talab qiladi.

50. Suvning qattiqligini kimyoviy ishlov berish natijasida yo'qotish (yoki yumshatish) mumkin. Ular ichida qanday usullar ahamiyatli: Reaksiya yordamida ifodalang.

So'ndirilgan ohak bilan ishlash (Ca(OH)<sub>2</sub>), soda (Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>) bilan ishlash, kationitlar bilan ishlash. Hozir shu maqsadda alumosilikatlardan ham (Na<sub>2</sub>Al<sub>2</sub>Si<sub>4</sub>O<sub>12</sub>) foydalanilmoqda. Reaksiya tenglamalari;

1.  $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2 + \text{Ca}(\text{OH})_2 \rightarrow 2\text{CaCO}_3 + 2\text{H}_2\text{O}$ ;
2.  $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2 + \text{Na}_2\text{CO}_3 \rightarrow \text{CaCO}_3 + 2\text{NaHCO}_3$ ;
3.  $\text{Na}_2\text{CO}_3 + \text{CaSO}_4 \rightarrow \text{CaCO}_3 + \text{Na}_2\text{SO}_4$ ;
4.  $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2 + \text{Na}_2\text{Al}_2\text{S}_2\text{O}_8 \rightarrow \text{CaAl}_2\text{S}_2\text{O}_8 \cdot n\text{H}_2\text{O} + 2\text{NaHCO}_3$ ;
5.  $\text{Na}_2\text{Al}_2\text{S}_2\text{O}_8 \cdot n\text{H}_2\text{O} + \text{CaSO}_4 \rightarrow \text{CaAl}_2\text{S}_2\text{O}_8 \cdot n\text{H}_2\text{O} + \text{Na}_2\text{SO}_4$

51. Keyingi vaqtlarda suvning qattiqligini kimyoviy ishlov berish natijasida yo'qotish uchun tarkibida aminogruppa bor polimerlardan foydalanilmoqda.

Aminograppalar suvli eritmada nima uchun xizmat qiladi.

Aminograppalar suvli eritmada kislotalarni bog'lash uchun xizmat qiladi. Bunda tegishli tuzlar hosil qilish natijasida suvdagi kislotalar yo'qotiladi. Bu vaqtda quyidagi reaksiya ketishi mumkin:  $\text{Z} \cdot \text{NH}_2 + \text{HCl} \rightarrow [\text{Z} \cdot \text{NH}_3]\text{Cl}$

### III GRUPPA ELEMENTLARI.

1. III grupp bosh gruppachasi elementlari qanday oksidlanish darajalarini namoyon qiladi.  
oksidlanish darajasi +3 ga teng, faqat borning oksidlanish darajasi +3 va -3, talliyniki esa +3 va +1 bo'la oladi.
2. ion radius kattalashgan sari gidroksidlarning asos xossalari qanday o'zgaradi  
kuchayib boradi.
3. III grupp metallarining gidroksidlari asos xossaga egami, kislotalikmi  
 $\text{B}(\text{OH})_3$  — kislota xossali,  $\text{Al}(\text{OH})_3$ ,  $\text{Ga}(\text{OH})_3$  — amfoter,  $\text{Tl}(\text{OH})_3$  da ozgina asos xossa bor. Lekin bu ham amfoter modda hisoblanadi.  $\text{Tl}(\text{OH})_3$  da amfoter xossa nihoyatda kuchsiz ifodalangan.
4. Aluminiyning tabiatdagi eng asosiy birikmalarini sanang  
Aluminosilikatlar boksit, korund va kriolitlar.
5. Aluminosilikatlar haqida nimalar bilasiz. Ular qanday hosil bo'ladi, qanday ko'rinishlari mavjud, formulasini keltiring.  
Ularni aluminiy, kremniy, ishqoriy va ishqoriy-yer metallarning oksidlaridan hosil bo'lgan tuzlar sifatida qarash mumkin. Ular yer po'stlog'ining asosiy qismini tashkil qilib, tabiiy jinslarning asta-sekin yemirilishi yoki nurashi natijasida hosil bo'ladi. Ular loy yoki gil va dala shpatlari — kaolin ko'rinishida bo'lishi mumkin. Ularning tarkibi  $\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot n\text{H}_2\text{O}$  formula bilan ifodalanadi.
6. Boksitlar haqida nimalar bilasiz. Ular qanday hosil bo'ladi, formulasini keltiring.  
Bu moddalar, asosan, aluminiy gidroksid bilan temir, marganes, kremniy oksidlaridan tashkil topgan tog' jinslari hisoblanadi. Boksitlar turli tog' jinslarining yemirilishi va ko'l, dengizlarning havzalariga tushishi natijasida hosil bo'ladi. Boksitlarning tarkibi  $\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot n\text{H}_2\text{O}$  bilan ifodalanadi.
7. Sof holdagi aluminiy metali qaysi birikmasidan ajratib olinadi  
Boksitlardan
8. Korundning tarkibini ayting, u qanday xossalarga ega va undan nima maqsadda foydalanamiz.  
Bu mineral, asosan, aluminiy oksididan tashkil topgan bo'lib, qattiq kristall moddadir. Shuning uchun undan abraziv (charx) toshlari tayyorlashda keng qo'llaniladi.
9. Kriolitning tarkibini va formulasini ayting.  
Aluminiyning ftor va natriy ftorid bilan hosil qilgan birikmasi kriolit deyiladi va tarkibi  $\text{Na}_3\text{AlF}_6$  yoki  $\text{AlF}_3 \cdot 3\text{NaF}$  formula bilan ifodalanadi.
10. Al ni birinchi marta sanoat miqyosida olish usulini qaysi olim nechanchi yilda kashf qilgan.  
1885-yilda fransuz olimi Sent-Kler Devil
11. Aluminiy qaysi manbalardan olinadi va uni olishning elektroliz usulini tushuntiring

Aluminiy olishda, asosan, kriolitni elektroliz qilib, aluminiy oksid olinadi.

Sof holdagi aluminiy metalli olishda asosiy xomashyo hisoblangan aluminiy oksidi tarkibida suv, temir oksidlari, shuningdek, kremniy IV oksidi bo'lgan boksitdan olinadi. U avval suyuqlantirilgan kriolit ( $\text{Na}_3\text{AlF}_6$ ) da eritiladi. Bunday eritma elektroliz qilinganida katodda suyuq aluminiy, grafit, anodda esa kislorod ajralib chiqadi:

12. Aluminiy nima sababdan korroziyaga chidamli.


Aluminiy oddiy sharoitda havo kislorodi bilan oson birikadi. Natijada sirti yupqa oksid parda bilan qoplanadi va hosil bo'lgan parda uni keyingi oksidlanishdan saqlaydi. Oksid pardaning qaligigi taxminan 0,00001 m ga yaqin, lekin bunchalik yupqa bo'lishiga qaramay, aluminiy plastikasi cho'zilganida, bukilganida yoki buralganida uning sirti ochilib qolmaydi. Natijada aluminiy namlik va havo ta'siridan yemirilmaydi.

13. Aluminiyning oksid pardasi qaligigi nechaga teng

0,00001 m ga





14. Aluminiy odatdagi temperaturada ishqorlar, konsentrlangan va juda suyultirilgan nitrat kislotada va o'rtacha konsentratsiyaga ega bo'lgan nitrat kislotada bilan tasiri.

Aluminiy ishqorlarda ham eriydi. Aluminiy odatdagi temperaturada konsentrlangan va juda suyultirilgan nitrat kislotada erimaydi, faqat o'rtacha konsentratsiyaga ega bo'lgan nitrat kislotadagina eriydi.



15. Aluminiy qizdirilganda IV, V, VI, VII guruh elementlari bilan o'zara reaksiya tenglamalari ko'rsating.

Aluminiy qizdirilganida galogenlar bilan, yuqori temperaturada esa oltingugurt, azot va uglerod kabi metallmaslar bilan kimyoviy reaksiyaga kirishadi:



16. Duraluminiyning tarkibini ayting va u nima maqsadda ishlatiladi

Al —95%, Cu — 4%, Mg, Mn, Fe, Si —0,5 %) samolyotsozlikda ishlatiladi.

17. Aluminiy qanday maqsadlarda ishlatiladi.

1. Aluminiy kabellar va elektr simlar tayyorlashda

2. Aluminiydan mashinasozlikda, turli detallar olishda

3. Kislotaga nisbatan barqarorligidan foydalanib, nitrat kislotada tashiladigan idishlar tayyorlashda

4. Avtobus, trolleybus va vagonlarning qobiqlari, o'rindiqlar va tutqichlar, zanglamasligi tufayli idish-ovoq tayyorlanadi.

5. Temir buyumlarni korroziyalanishdan saqlash uchun ularning sirtini aluminiyli bo'yoqlar bilan qoplashda.

18. Aluminotermiya- jarayonni deb qanday jarayonlarga aytiladi.

Aluminiy kukuni metallurgiyada xrom, marganes, vanadiy va boshqa metallarni ularning oksidlaridan qaytarishda keng qo'llaniladi. Texnikada bu jarayonni *aluminotermiya* deb ataladi.

19.  $\text{Al}_2\text{O}_3$  tarkibida turli moddalar aralashgan bo'lganligidan u aniq bir rangga ega bo'lmaydi. Masalan tarkibiga xrom birikmalari aralashgan bo'lsa, Ozgina temir yoki titan birikmalari aralashgan bo'lsa ularning rangi va nomlari qanday ataladi.

